

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

KADIROVA DURDONA DILSHADOVNA

MARGARET ETVUD IJODIDA DISTOPIYA
JANRI AN‘ANALARI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Kadirova Durdona Dilshadovna

Margaret Etvud ijodida distopiya janri an’analari..... 3

Кадирова Дурдона Дилшадовна

Традиции жанра дистопии в творчестве Маргарет Этвуд..... 29

Kadirova Durdona Dilshadovna

Tradition of Dystopian Genre in Margaret Atwood’s Literary Works..... 57

E’lon qilingan ishlar ro’yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 62

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

KADIROVA DURDONA DILSHADOVNA

MARGARET ETVUD IJODIDA DISTOPIYA
JANRI AN‘ANALARI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.PhD/Fil3787 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Maxmudova Nargiza Alimovna**
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Siddikova Iroda Abduzuxurovna**
filologiya fanlari doktori, professor
Nasriddinov Dilshod A‘zamqulovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel.: (998 71) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

I.M. Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida “distopiya” asarlari XIX asrda shakllanib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi va bugungi kunda zamonaviy adabiy jarayonlarning yetakchi janrlaridan biriga aylandi. Distopiya romanlari nafaqat ilmiy tadqiqotchilar, balki keng kitobxonlar ommasi e’tiborini ham o‘ziga jalb etmoqda. Zero, distopiya asarlarida insoniyat duch kelayotgan hozirgi global muammolar – totalitar boshqaruv, gender tengsizlik, ekologik falokatlar, nazoratsiz ilm-fan va texnika taraqqiyotining salbiy oqibatlari, shuningdek, insoniyat kelajagi bilan bog‘liq xavf-xatarlar badiiy talqin etiladi.

So‘nggi yillarda zamonaviy adabiyotshunoslikda distopiya janri yanada rivojlanib, yangi mavzular, badiiy shakllar va uslublarni o‘zida mujassam etmoqda. Bu jarayonda kanadalik yozuvchi Margaret Etvud ijodi alohida e’tiborga loyiqdir. Uning asarlarida siyosiy bosim, gender tengsizligi, ekologik tahdidlar va insoniyat kelajagi uchun axloqiy mas’uliyat kabi dolzarb mavzular badiiy mahorat bilan yoritiladi. Ayniqsa, Etvud ijodida feministik, ekofeministik va postgumanistik g‘oyalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi sababli uning distopik asarlari zamonaviy adabiyotshunoslikda ko‘plab nazariy hamda amaliy tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylanmoqda.

O‘zbekiston adabiyotshunosligi uchun ham jahon adabiyotidagi distopiya an‘analarini o‘rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ayni paytda, mamlakatimizda ilm-fan rivoji, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, xorijiy tajribalarni o‘rganish va joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Distopiya janrida yoritilayotgan ekologik inqirozlar, gender tengsizligi va ijtimoiy adolatsizlik muammolari bugungi kun o‘zbek kitobxonida ham zamonaviy muammolar ustida chuqur fikr yuritish, ilmiy tahlil va mulohazalar yuritish imkonini yaratadi. Shu bois, Margaret Etvud ijodida distopiya janri an‘analarini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya natijalari O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni¹, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son², 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son³, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-5117-son⁴, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning

¹ <https://lex.uz/docs/-4571490> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

² <https://lex.uz/ru/docs/-4545884> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5085999> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁴ <https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari⁵, 2021-yil 1-apreldagi “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5047-son⁶, 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-128-son⁷ qarorlari, shuningdek, mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida distopiya janri, shuningdek, biz tadqiq qilayotgan kanadalik yozuvchi Margaret Etvud ijodi ko‘p yillardan beri g‘arb olimlarining e’tiborini tortib kelmoqda. Jumladan, distopiya atamasining kelib chiqishi va janr sifatida rivojlanishi T.Moylan, R.Bakkolini, L.Sargent, K.Buker, M.Hillegas, A.Hauels⁸ tomonidan feministik distopiyalar va ularning nazariy ahamiyati E.Miniko, M.Dunja, J.Kortiel, S.Falquina, B.Ernreyx, E.Klingsmiz⁹, Margaret Etvud ijodi esa N.Kuk, H.Makferson, A.Hauels, S.Kuznitski, S.Dunning, F.Tolan, K.Steyn, U.Le Guin, M.Grimbek¹⁰, ekofeminizm va “iqlim fantastikasi”(cli-fi) V.Sharff, G.Gard¹¹ tomonlaridan o‘rganilgan.

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁶ <https://lex.uz/docs/-5352230> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁷ <https://lex.uz/docs/-6438903> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁸ Moylan T., Baccolini R. (Eds.). *Dark horizons: Science fiction and the dystopian imagination*. – New York: Routledge, 2003. – 264 p.; Sargent L.T. *The three faces of utopianism revisited* // *Utopian Studies*, 1994. – № 5 (1). – P. 1-37; Booker M.K. *The dystopian impulse in modern literature: Fiction as social criticism*. – Connecticut: Praeger, 1994. – 208 p.; Hillegas M.R. *Dystopian science fiction: New index to the human situation* // *New Mexico Quarterly*, 1961. – № 31 (3). – P. 238-249; Howells C.A. *Margaret Atwood’s dystopian visions: The Handmaid’s Tale and Oryx and Crake* // C.A.Howells (Ed.), *The Cambridge Companion to Margaret Atwood*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. P. 161-175.

⁹ Minico E.D. *Spatial and psychophysical domination of women in dystopia: Swastika Night, Woman on the Edge of Time and The Handmaid’s Tale* // *Humanities*, 2019. – № 8 (1). – P. 1-15; Mohr D.M. *Worlds apart? Dualism and transgression in contemporary female dystopias*. – North Carolina: McFarland & Company, 2005. – 320 p.; Cortiel J. *Feminist utopia/dystopia*: Joanna Russ, *The Female Man* (1975), Marge Piercy, *Woman on the Edge of Time* (1976) // E.Voigts, A.Boller (Eds.), *Dystopia, science fiction, post-apocalypse: Classics, new tendencies, model interpretations*. – Germany: Wissenschaftlicher Verlag Trier, 2015. – P. 155-169; Martínez-Falquina S. *Feminist dystopia and reality in Louise Erdrich’s Future Home of the Living God and Leni Zumas’s Red Clocks* // *The European Legacy*, 2021. – № 26 (3-4). – P. 270-286; Ehrenreich B. *Feminist dystopia* // H.Bloom (Ed.), *Bloom’s guides: Margaret Atwood’s The Handmaid’s Tale*. – Broomall: Chelsea House Publishers, 2004. – P. 78-80; Klingensmith E. *Feminist themes in dystopias: MA ... thes.* – Pennsylvania, 2016. – 80 p.

¹⁰ Cooke N. *Margaret Atwood: A biography*. – Ontario: ECW Press, 1998. – 378 p.; Macpherson H.S. *The Cambridge introduction to Margaret Atwood*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 158 p.; Howells C.A. *Margaret Atwood’s dystopian visions: The Handmaid’s Tale and Oryx and Crake* // C.A.Howells (Ed.), *The Cambridge Companion to Margaret Atwood*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 161-175; Kuźnicki S. *Margaret Atwood’s dystopian fiction: Fire is Being Eaten*. – UK: Cambridge Scholars Publishing, 2017. – 230 p.; Dunning S. *Margaret Atwood’s Oryx and Crake: The Terror of the Therapeutic* // *Canadian Literature*, 2005. – № 186. – P. 86-101; Tolan F. *Margaret Atwood: Feminism and fiction*. – Amsterdam: Rodopi, 2007. – 322 p.; Stein K. *Problematic Paradise in Oryx and Crake* // J.B.Bouson (Ed.), *Margaret Atwood: The Robber Bride, the Blind Assassin, Oryx and Crake*. – London: A & C Black, 2010. – P. 141-155; Ursula K.L.G. *The Year of the Flood by Margaret Atwood* // *The Guardian*, 2009. August

Rus adabiyotshunosligida ushbu mavzu yuzasidan G.Andreyev, N.Yakusheva, M.Jurkova, V.Kostenkova¹², Margaret Etvud ijodi bo'yicha K.Labudova, Ye.Jarkova¹³ ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

O'zbek adabiyotshunos olimlari S.Kamilova, G.Garipova, O.Yuldashevalar o'z ilmiy tadqiqotlarida rus antiutopiyasini tadqiq qildilar¹⁴. M.Nizamova, N.Maxmudova, R.Ahmedov, V.Pulatovalar ingliz va Amerika adabiyotida antiutopiya janrini o'rganganlar¹⁵. S.Begmatova¹⁶ esa distopiya janri yuzasidan K.Ishiguro asarlari misolida ilmiy izlanishlar olib borganlar. U. Kuchimov qiyosiy aspektda fantastika janri silsilasida distopiya janriga ham murojaat qilgan¹⁷.

Margaret Etvud ijodi va uning distopik asarlari xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, biroq o'zbek tiliga tarjima qilinmaganligi uchun adabiyotshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilmagan. Uning ijodiy silsilasida distopik roman an'analari ekopoetik yonadashuv asosida yetarlicha e'tibor berilmaganligi bois ham ushbu tadqiqot ishiga ehtiyoj tug'ildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Lingvistika va ingliz adabiyoti" kafedrasining "Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" ustuvor ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Margaret Etvud ijodida distopiya janri an'analari o'rganish hamda romanlarining badiiy-estetik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

29 // <https://www.theguardian.com/books/2009/aug/29/margaret-atwood-year-of-flood>; Grimbeek M. Margaret Atwood's environmentalism: Apocalypse and satire in the MaddAddam trilogy. PhD ... diss. – Sweden, 2017. – 286 p.

¹¹ Scharff V. Are earth girls esy?: Ecofeminism, women's history and environmental history // Journal of Women's History, 1995. – № 7 (2). – P. 164-175; Gaard G. (Ed.). Ecofeminism: Women, animals, nature. – Philadelphia: Temple University Press, 1993. – 331 p.

¹² Андреев Г.С. Проблема свободы в английской антиутопии. Санкт-Петербургский государственный университет, 2021. – 304 с.; Якушева Н.Б. Трансформация утопии в антиутопию в культуре XX века. – Санкт-Петербург, 2001. – 199 с.; Журкова М.С. Лингвосинергетические особенности смыслоформирования в романах-антиутопиях. – Челябинск, 2021. – 234 с.; Костенкова В.В. Антиутопия начала XXI века в динамике жанровых трансформаций. – Краснодар, 2019. – 180 с.

¹³ Labudova K. Paradise redesigned: Post-apocalyptic visions of urban and rural spaces in Margaret Atwood's Maddaddam Trilogy // Eger Journal of English Studies, 2013. – № XIII. – P. 27-36; Жаркова Е.П. Антиутопии М. Этвуд «Рассказ Служанки» и «Трилогия Безумного Адама» в контексте традиции и новейших тенденций в развитии жанра. – Воронеж, 2017. – 167с.

¹⁴ Камиллова С.Э. Современный рассказ: содержательные векторы и повествовательные стратегии. – Т.: Fanvatehnologiya, 2016. – 280 с.; Гарипова Г.Т. Литература Узбекистана (Глава в коллективной монографии) // Мировой литературный процесс XXI века. Коллективная монография (международный проект). – Алматы: ЎдебиетЎлеми, 2016. – С. 137-179; Юлдашева О.Б. Антимир в антиутопии (о повести В.Маганина «Лаз») // Первые Айтматовские чтения. Материалы республиканской научно-практ. конф. – Т.: Национальный университет Узбекистана, 2018. – С. 87-88;

¹⁵ Низамова М.Н. Пути развития литературы Великобритании второй половины XX-начала XXI века. – Т.: НУУз, 2017. – 134 с.; Makhmudova N.A. Postcolonial ecofeminist perspectives on womanhood and nature in Barbara Kingsolver's The Poisonwood Bible // Literary Herald: International Journal of English and Literature, 2024. – № 10 (2). – P. 115-121; Ахмедов Р.Ш. Жанр антиутопии в современной литературе // Звезда Востока. – № 6. – Т., 2016. – С. 132-134; Ахмедов Р.Ш. Новый взгляд на жанр антиутопии // Звезда Востока. – № 3. – Т., 2020. – С. 107-110; Pulatova V.I. Zamonaviy Britaniya adabiyotida antiutopiya janri tipologiyasi. Filol. fan. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 60 b.

¹⁶ Begmatova S.M. Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2023. – № 29 (2). – B. 370-373.

¹⁷ Ko'chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi. – Toshkent: SamoNashr, 2024. – 121 b.

Tadqiqotning vazifalari:

Jahon adabiyotida distopiya janrining nazariy asoslari, shakllanish bosqichlari, xususiyatlari va an'analarini o'rganish hamda zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini aniqlash;

Margaret Etvud ijodida feminist distopiya turini ajratish, asarlarida distopiya an'alarining zamonaviy ijtimoiy, gender hamda ekologik muammolar silsilasida badiiy-estetik jihatdan yangilanishini tahlil qilish;

Margaret Etvud "Oqsoch hikoyasi"da ayol, onalik hamda oila qadriyatlari talqini asosida romanning ekofeministik va postgumanistik xususiyatlari hamda muallif tomonidan distopik voqelikning ifodalanishida tanqidiy qarashlarning badiiy o'ziga xosligini aniqlash;

Adibaning "Meddaddam" trilogiyasidagi g'oyaviy-falsafiy xususiyatlarini ajratish, post-apokaliptik jamiyatning diniy, siyosiy va ekologik mavzular talqinini izohlash va obrazlar yaratishda yozuvchi badiiy mahoratining individual xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Margaret Etvudning ijodi hamda distopiya janrida yozilgan "Oqsoch hikoyasi" ("The Handmaid's tale", 1985) va "Meddaddam trilogiyasi" ("MaddAddam", 2003-2013) romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Margaret Etvud asarlarida distopiya janri an'alari va unlarining ijtimoiy, ekologik hamda gender muammolari kontekstida badiiy ifodalanishi.

Tadqiqotning usullari. Tarixiy-madaniy, biografik, tipologik usullar, shuningdek, janriy va yaxlit estetik yondashuvlar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon adabiyotida utopik shakllardan diniy-patriarxal, texnokratik va postapokaliptik variantlargacha murakkab tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan distopiya janrining an'anaviy shakliy va mazmuniy xususiyatlari tizimli tahlil asosida aniqlangan;

Margaret Etvud ijodida feministik va ekologik muammolar ta'sirida badiiy transformatsiyaga uchragan distopiya janri asosida reproduktiv nazorat, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy tabaqalanish masalalarini yorituvchi original feministik distopiya modeli shakllangani ilmiy jihatdan isbotlangan;

"Oqsoch hikoyasi" romanida ayol, onalik va oila qadriyatlari asosida talqin etilgan ekofeministik hamda postgumanistik xususiyatlar, distopik voqelikning badiiy ifodasida subyektiv narrativ, psixologik teranlik, rang va ramzlar tizimi, intertekstuallik hamda diniy allyuziya, shuningdek, reproduktiv-itoatkor, imtiyozli, isyonkor, mafkuraviy nazoratchi va maishiy xizmat ko'rsatuvchi ayollar obrazlarining tipologik tahliliga asoslangan o'ziga xos badiiy-estetik yechimlar orqali muallifning tanqidiy qarashlari aniqlangan;

Margaret Etvudning "MeddAddam" trilogiyasida postapokaliptik jamiyat kontekstida insoniyatning ma'naviy tanazzuli, diniy mafkuralarning siyosiy manipulyatsiyaga aylanishi, ekologik falokat, biologik nazorat, gender zo'ravonligi va ilm-fanning tijorat quroliga aylanishi kabi dolzarb muammolar badiiy-falsafiy uyg'unlikda yoritilib, bu jarayon ayol obrazlari va sun'iy mavjudotlar timsolida ifodalanishi, shuningdek, satira va ironiya, intertekstual va mifologik allyuziyalar,

ramziy detallar asosida yozuvchining individual badiiy-estetik uslubi shakllangani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiya tadqiqoti davomida “distopiya” atamasining kelib chiqishi, uning janr xususiyatlari va shakllanish bosqichlari bo‘yicha kompleks nazariy tahlil o‘tkazildi, feministik distopiya janri ajratilib, tizimlashtirildi hamda uning umumiy distopiya janridan farqlari aniqlash imkoniyati yaratilib, bu adabiy qonuniyatlar shu kabi asarlarni tahlil qilish uchun nazariy manba sifatida xizmat qiladi;

chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, ingliz adabiyoti kabi fanlar bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Margaret Etvudning hayoti va ijodiy faoliyati bo‘yicha biografik materiallar yig‘ildi hamda umumlashtirildi, uning avtobiografik matnlari va intervyulari o‘rganilib, muallifning badiiy dunyoqarashi va ijodiy pozitsiyasi ochib berishda muhim manba sifatida foydalanildi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslangani, tanlab olingan distopik romanlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar tarixiy-madaniy, biografik, yaxlit estetik tahlil metodlaridan va ekofeminizmning nazariy tamoyillari bilan asoslangani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar hozirgi zamon jahon adabiyoti, Margaret Etvud ijodi, distopiya va uning xususiyatlari, feminist distopiya. Ekologik distopiya. Postapokaliptik distopiya subjanrlari yuzasidan mavjud ma‘lumotlarni kengaytirishi, shuningdek, ekofeminizm tadqiqiga oid ilmiy ishlarni olib boorish amaliyotida keng foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati distopiya va uning nazariy xususiyatlarini aniqlashda manba vazifasini bajara olishi hamda uning xulosalaridan “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti”, “Adabiy-badiiy tahlil metodlari”, “Adabiy tanqidchilik tarixi”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” va “Adabiy oqimlar evolyutsiyasi” fanlari bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda hamda darslik, o‘quv qo‘llanmalari, majmua, lug‘atlar yaratishda; doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, maqolalar, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Margaret Etvud ijodida distopiya janri an‘analari bilan bog‘liq ilmiy natijalar asosida:

jahon adabiyotida utopik shakllardan diniy-patriarxal, texnokratik va postapokaliptik variantlargacha murakkab tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan distopiya janrining an‘anaviy shakliy va mazmuniy xususiyatlari tizimli tahlil asosida aniqlanganiga oid xulosalardan A-1-61 raqamli “Erasmus+ credit mobility” (ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419) mavzusidagi amaliy

loyihada samarali foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 30-yanvardagi 04-04-1/453-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha mazmuni takomillashtirilib, Margaret Etvud distopik romanlarining badiiy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyati yuzaga kelgan;

Margaret Etvud ijodida feministik va ekologik muammolar ta’sirida badiiy transformatsiyaga uchragan distopiya janri negizida reproduktiv nazorat, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy tabaqalanish masalalarini yorituvchi original feministik distopiya modeli shakllangani ilmiy jihatdan isbotlangani xususidagi nazariy ma’lumotlardan 1683580 raqamli Britaniya Kengashi (British Council) ko‘magida amalga oshirilayotgan “Ingliz tili maktab fani sifatida: boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining ilg‘or tajribalarni o‘rganish” xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 30-yanvardagi 04-04-1/440-son ma’lumotnomasi). Natijada ekofeministik, feministik va distopik romanlarni tahlil qilishning metodologik tamoyillariga oid ma’lumotlar loyiha doirasida yaratilgan o‘quv-metodik majmualarning mazmun-mohiyatini boyitgan;

“Oqsoch hikoyasi” romanida ayol, onalik va oila qadriyatlari asosida talqin etilgan ekofeministik hamda postgumanistik xususiyatlar, distopik voqelikning badiiy ifodasida subyektiv narrativ, psixologik teranlik, rang va ramzlar tizimi, intertekstuallik hamda diniy allyuziya, shuningdek, reproduktiv-itoatkor, imtiyozli, isyonkor, mafkuraviy nazoratchi va maishiy xizmat ko‘rsatuvchi ayollar obrazlarining tipologik tahliliga asoslangan o‘ziga xos badiiy-estetik yechimlar orqali muallifning tanqidiy qarashlari aniqlanganiga oid ilmiy-nazariy ma’lumotlaridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan yosh ijodkorlar to‘garaklari faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 7-noyabrdagi 01-03/ 909-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalari dastur, elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

Margaret Etvudning “*MeddAddam*” trilogiyasida postapokaliptik jamiyat kontekstida insoniyatning ma’naviy tanazzuli, diniy mafkuralarning siyosiy manipulyatsiyaga aylanishi, ekologik falokat, biologik nazorat, gender zo‘ravonligi va ilm-fanning tijorat quroliga aylanishi kabi dolzarb muammolar badiiy-falsafiy uyg‘unlikda yoritilib bu jarayon ayol obrazlari va sun‘iy mavjudotlar timsolida ifodalanishi, shuningdek, satira va ironiya, intertekstual va mifologik allyuziyalar, ramziy detallar orqali yozuvchining individual badiiy-estetik uslubi shakllanganiga oid xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413 raqamli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihada hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 6-iyuldagi 275-sonli buyrug‘i asosida nashr qilingan “History of Literary Criticism” nomli darslikda samarali foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 22-avgustdagi 01/487-son va 2025-yil 31-yanvardagi 02-01/483-son ma’lumotnomalari). Natijada loyiha va darslik mazmun-mundariyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 134 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo'llanilgan metodlar, obykti va predmeti tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Distopiya janrining nazariy va tarixiy taraqqiyoti”** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi fasli **“Distopiya adabiy janr sifatida: muammo va yechimlar”** deb nomlangan. Distopiya janrining shakllanishi va rivojlanishi adabiyotshunoslikda alohida ilmiy e'tiborga loyiq. Adabiy janrlar tizimida distopiya fantastik nasrning roman turiga mansub bo'lib, dastlab utopiya tushunchasiga qarama-qarshi shakllangan. Utopiya – ideal va mavjud bo'lmagan jamiyat tasviri bo'lsa, distopiya insoniyat kelajagidagi xavfli ijtimoiy, siyosiy va texnologik inqirozlar ifodasidir. Distopiyaning ilk namunalari G.Uells, J.London, E.Zamyatin, A.Xaksli, J.Oruel asarlarida yuzaga kelgan bo'lib, XX asrda jamiyatdagi totalitarizm, texnologik manipulyatsiya va inson erkinligining cheklanishi asosiy mavzular sifatida shakllandi.

“Distopiya” atamasi ilk bor 1868-yilda Jon Styuart Mill tomonidan parlament nutqida ishlatilgan bo'lib, u bu neologizmni *utopiya* – “imkonsiz darajada yaxshi” jamiyat tushunchasiga qarama-qarshi **“imkon darajada yomon”** jamiyat degan ma'noda qo'llaydi. Millning ta'kidlashicha, bu atama Jeremi Bentam tomonidan taklif qilingan **“kakotopiya”** neologizmi bilan ma'nodosh bo'lib, har ikkisi ham yomonlikni bildiruvchi yunoncha ildizlardan kelib chiqqan: *dys-* (yomon, buzilgan) va *kako-* (yoqimsiz, noto'g'ri)¹⁸ degan ma'noni bildiradi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda distopiya janrining nazariy-terminologik asoslari bo'yicha bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga

¹⁸ Baldick Ch. The concise Oxford dictionary of literary terms. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 74; Glossary of Literary Terms. URL: <https://www.encyclopedia.com/arts/educational-magazines/glossary-literary-terms> (murojaat sanasi 20.03.2023); Sargent L.T. The three faces of utopianism revisited // Utopian Studies, 1994. – № 5 (1). – P. 1-37; Booker M.K. The dystopian impulse in modern literature: Fiction as social criticism. – Connecticut: Praeger, 1994. – P. 174.

oladi: 1) terminologik noaniqliklar (utopiya, antiutopiya, kakotopiya utopiya, yukroniya, distopiya); 2) janr chegaralari masalasi (ilmiy fantastika); 3) yozuvchining badiiy uslubidan kelib chiqadigan tasniflar (romantik distopiya, ekologik distopiya); mavzular asosida farqlanishi (apokaliptik, totalitar distopiya); 4) gender aspektlari (feministik distopiya); 5) shuningdek, janrning milliy o'ziga xoslik jihatidan tasniflanishi. Ba'zi olimlar "antiutopiya"ni "distopiya"dan ayro, butunlay o'zga so'z deb biladilar. Moylan ta'kidlaganidek, "*anti-utopia is dystopia's nemesis*"¹⁹, ya'ni "Antiutopiya" nafaqat "utopiya"ga, balki "distopiya"ga ham qarama-qarshi qo'yiladi. G.Morsonning ilmiy-nazariy mushohadalarida antiutopiya va distopiya atamalariga qisqa, lekin aniq ta'rif berilgan. Olimning fikridan, antiutopiya – bu hayoliy, afsonaviy, qabohatga, razolatga to'la olam tasviri, distopiya esa mana shu olamning aynan mavjud shaklining badiiy adabiyotda zuhurlanishidir, degan ma'noni anglash qiyin emas.

Ilmiy fantastika bilan ma'lum mavzuiy yaqinliklarga ega bo'lishiga qaramay, distopiya janri o'ziga xos badiiy ifoda usullari bilan ajralib turadi: agar ilmiy fantastika ilmiy-texnik taraqqiyotning ijobiy va salbiy oqibatlarini ham o'rganishga moyil bo'lsa, distopiya, avvalo, ijtimoiy, mafkuraviy, siyosiy va ekologik tazyiq hamda nazorat tizimlarini tasvirlashga qaratiladi. Ba'zi distopik asarlarda texnologiya zo'ravonlik, shaxsiyatni tahqirlash va boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'ladi, biroq bu holat janrning universallashtirgan mezon sifatida emas, balki uning alohida variantlaridan biri sifatida kuzatiladi.

Distopiya taraqqiyoti besh bosqichda o'rganiladi va 1885-1993-yillarda yozilgan asarlarni qamrab oladi: 1) ilk distopiyalar 1880-1910 (G.Uells, J.London); 2) inqilobiy distopiyalar 1920-1940 (Zamyatin, Xaksl, Oruel); 3) atom davridagi apokaliptik distopiyalar 1950-1960 (Breydberi, Golding); 4) ijtimoiy-tanqidiy distopiyalar 1960-1970 (Dik, Le Guin, Pirj) hamda 5) "Sovuq urush"dan keyingi distopiyalar 1980-90 (Gibson, Etvud, Jeyms)²⁰.

Mazmunan distopiya janri zamonaviy adabiyotda global muammolar – totalitar boshqaruv, inson huquqlarining buzilishi, gender tengsizligi, ekologik inqiroz va ilm-fan yutuqlarining xavfli oqibatlarini badiiy aks ettirish vositasi sifatida shakllangan. Shuningdek, ijtimoiy tabaqalanish, texnologik manipulyatsiya va kelajakdagi ehtimoliy xavf-xatarlar ham asosiy mavzular sirasiga kiradi. Ushbu janr kitobxonni hozirgi ijtimoiy muammolar ustida fikrlash va ogohlantirishga chorlaydi.

Shaklan, distopiya asarlari kelajak yoki alternativ voqealarga asoslanadi. Qattiq nazorat ostidagi jamiyat tasviri, boshqaruv markazlari va yopiq makonlar asosiy badiiy manzarani tashkil etadi. Qahramonlar ko'pincha tizimga qarshi kurashuvchi oddiy insonlar bo'ladi. Ramz va allegoriyalar, rang va obyektlar orqali asosiy g'oyalar ifodalanadi. Satira va ironiyadan foydalanish jamiyat tanqidini kuchaytiradi. Distopik romanlar ko'p qatlamli syujet, retrospektiv hikoya va ochiq yakun orqali o'quvchini mustaqil fikr yuritishga undaydi. Janrning asosiy vazifasi

¹⁹ Moylan T., Baccolini R. (Eds.). Dark horizons: Science fiction and the dystopian imagination. – New York: Routledge, 2003.

²⁰ Theron E.F. Emotion, embodiment, and the novel: Word-frequency characteristics and dystopian masterworks. PhD ... thes. – USA, 2019. – P. 109.

– jamiyatdagi xavfli yo‘nalishlar haqida ogohlantirish va ularni badiiy tahlil qilishdir.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Feministik distopiya romanlari evolyutsiyasi va adabiy ahamiyati (1915-2023-yillar)*” deb nomlanadi. 1915-2023-yillar davomida yaratilgan yigirmadan ortiq feministik distopik romanlar ijtimoiy-siyosiy va gender muammolarini ayollar nigohida yoritadi. Ayol yozuvchilar erkaklar ko‘pincha chetlab o‘tgan ayol va tabiat, onalik masalalariga e‘tibor qaratib, ushbu janr doirasini yanada kengaytirdilar. Feministik distopiyada gender tengsizligi, tug‘ilish ko‘rsatkichi, zo‘ravonlik, reproduktiv huquqlar va ekologik muammolar asosiy mavzularga aylangan²¹.

Feministik distopiya nazariyasida ekofeminizm muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv ilk bor 1974-yilda Fransuaza d’Obonn tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, ayol va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Patriarxal tizimlar tomonidan ayol va tabiat ustidan o‘rnatilgan nazorat ekofeministik adabiyotda tanqid ostiga olinadi²².

Distopiya janrining taraqqiy bosqichlari ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, biroq undan ajralib chiqqan feministik distopiya asarlarining evolyutsion bosqichlari aniq keltirilmaganligi bois ularning XX asr boshidan to hozirgi davrgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari keltirish maqsadga muvofiq deb bildik. Feministik distopiya evolyutsiyasi 4 bosqichga ajratildi:

1. Ilk bosqich (1915-1969): Sh.P.Gilman, K.Burdekin, S.Karnas asarlari;
2. Rivojlanish bosqichi (1970-1989): J.Rass, M.Pirsi, M.Etvud, O.Batler asarlarida siyosiy tanqid va gender muammolari keng yoritilgan;
3. Zamonaviy bosqich (1990-2009): D.Lessing, J.Heglend, S.Holl kabi mualliflar tomonidan ekologik va texnologik muammolar aks ettirilgan;
4. So‘nggi bosqich (2010-2023): H.Jordn, N.Alderman, L.Zumas, S.Mokintosh asarlarida siyosiy va raqamli nazorat, tug‘ruq siyosati va reproduktiv erkinlik masalalari o‘rganiladi.

Bundan tashqari, erkak yozuvchilar ham feministik distopiya elementlariga murojaat qilganlar. V.Bezant, B.Litton, Ch.Mayn, P.Kuper, J.Vestn, Pol va B.Andersen kabi mualliflar ayollar hukmronligi natijasidagi jamiyatlar falokatini tasvirlaydilar. Erkak yozuvchilarning feministik distopiyalari ayol obrazini ko‘pincha bilimsizlik va tajribasizlik fonida talqin qilsa, ayol yozuvchilar ijtimoiy zulm va gender tengsizligi muammolarini chuqur tahlil qiladilar²³.

Demak, feministik distopiyalarning vujudga kelishi feminizm davri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayollar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘z o‘rnini topishga intilishlari bilan xarakterlanadi. Feministik nazariyaning rivojlanib borishi natijasida feminist distopiyalarining mavzu ko‘lami ham kengayib bordi. Jumladan, ularning ilk namunalarida gender tengsizlik, jinsiy zo‘ravonlik, tug‘ishni nazorat qilish mavzulariga e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, “ekofeminizm” atamasining adabiyotga kirib kelishi feministik distopiyalarda ayol masalasi bilan bir qatorda atrof-muhit muammolarining o‘rin olishiga

²¹ Makhmudova N.A. Postcolonial ecofeminist perspectives on womanhood and nature in Barbara Kingsolver’s *The Poisonwood Bible* // *Literary Herald: International Journal of English and Literature*, 2024. – № 10 (2). – P. 115.

²² Hay P. *Main currents in Western environmental thought*. – Indiana: Indiana University Press, 2002. – P. 73.

²³ Roberts R. *A new species: Gender and science in science fiction*. – USA: University of Illinois Press, 1993. – P. 32.

sabab bo'ldi. Feministik distopiyalarning rivojlanish jarayonida erkak yozuvchilarning ham bu janrga qiziqish bildirganiga guvoh bo'lamiz. Biroq bunday asarlarning erkak va ayol yozuvchilar tomonidan yaratilish talqinida bir necha farqlar uchraydi. Jumladan, ayol yozuvchilar yaratgan feministik distopiyalarda ayol – “zaifa”, “tahqirlangan ayol” sifatida tasvirlansa, erkak yozuvchilar tomonidan yaratilgan yuqorida keltirilgan distopiya asarlarida “hukmdor” va “o'zga sayyoralik erkaksifat ayol” sifatida tasvirlangan. Ayol yozuvchilar ayollarning distopik jamiyatdagi muammolari talqiniga e'tibor qaratgan bo'lsalar, erkak yozuvchilar ayollarning bilimsizligi va tajribasizligi natijasida halokatga uchragan hukumat tasvirini yaratganlar. Ayol va jamiyat masalasi tasviriga bag'ishlangan distopik asarlar zamonaviy adabiyotshunoslikda “feministik distopik adabiyot” deya ta'riflanadi hamda aynan Margaret Etvud uning haqiqiy asoschisi hisoblanadi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Margaret Etvudning distopik asarlar yaratishda o'ziga xosligi*” deb nomlanadi. Unda Adibaning ilmiy-nazariy o'rganilishi doirasida har yili chop etiladigan “Annotated Bibliography”da 130 dan ortiq ilmiy ish jamlanadi. 1980-yilda Margaret Etvud jamiyati tashkil etilib, 1984-yildan boshlab unga bag'ishlangan maxsus byulleten nashr etila boshlandi. Shuningdek, 1980-yillarda J.Rozenberg, F.Devey, Arnold, K.Davidson, Sh.Greys, Lorren, J.Makkoliet, K.Spankren va Y.Kastro tomonidan adibaga bag'ishlangan monografiya hamda antologiyalar chop etildi.

Margaret Etvud o'z ijodini she'riyatdan boshlagan bo'lib, “Qo'sh Persafona”, “Sen baxtlisan”, “Yongan uydagi tong” kabi she'riy to'plamlarini yaratgan. Adibaning ilk romani “Yeyishli ayol” (1969) bo'lib, undan keyin “Yuzaga chiqish” (1972), “Orakul xonim” (1976), “Sog'liqqa zarar” (1981), “Mushukning ko'zi” (1988), “O'g'ri kelin” (1990), “Alias Grace” romanlari dunyo yuzini ko'rgan. 1990-yillarda u yana bir qator she'riy asarlarini nashr ettirgan.

2000-yillarda yozilgan romanlari ichida “Ojiz qotil”, “Oriks va Kreyk” va “MaddAddam” trilogiyasi alohida o'rin tutadi. Shuningdek, bolalar adabiyotiga ham e'tibor qaratib, “Daraxt tepasida” (1978), “Annaning uy hayvoni” (1980), “Malika Prunella” (1995) kabi asarlarni yaratdi. Etvudning noadabiy asarlari qatorida “Harakatlanayotgan maqsadlar”, “Qiziq mashg'ulotlar”, “Boshqa so'zlarda” va “Muhim savollar” kabi esse hamda maqolalar to'plamlari mavjud.

Etvud distopiya janriga feministik va ekofeministik tamoyillar asosida yangi mazmun olib kirdi. Ayniqsa, “Oqsoch hikoyasi” asari feministik distopiyaning asosiy namunasi sifatida e'tirof etiladi. “MaddAddam” trilogiyasida esa siyosiy, diniy, ekologik va biotexnologik muammolar keng qamrovli tarzda yoritiladi. Shuningdek, Etvud distopik asarlarida “ustopiya” va “satirik distopiya” tushunchalarini ham shakllantirib, janr doirasini yanada boyitdi²⁴.

²⁴ Macpherson H.S. The Cambridge introduction to Margaret Atwood. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 7; Rosenberg, J. Margaret Atwood. – TwaynePub, 1984. – 184 p.; Davey F. Margaret Atwood: Feminist Poetics. – Talonbooks, 1984. – 178p.; Davidson A. & Davidson C. The Art of Margaret Atwood: Essays in Criticism. – Canada: Anansi, 1981. – 304p.; Grace Sh. & Weir L. Margaret Atwood Language, Text and System. – University of British Columbia Press, 1983. – 158 p.; Howells C.A. The Cambridge companion to Margaret Atwood. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 8. URL: [https://thoughtsbecomewords.com/2018/10/28/yes-margaret-atwood-has-written-childrens-books/\(murojaat+sanasi:25.05.2023\)](https://thoughtsbecomewords.com/2018/10/28/yes-margaret-atwood-has-written-childrens-books/(murojaat+sanasi:25.05.2023)).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oqsoch hikoyasi”ning ekofeministik va postgumanistik xususiyatlari** deb nomlanadi. Ikkinchi bobning *“Distopik jamiyatda ‘ayol-onalik-oila’ munosabatlarining tanqidiy tasviri”* deb nomlangan birinchi faslida ushbu asar ilk feministik distopik roman sifatida eʼtirof etilgan boʻlib, turli aspektlarda tadqiq va tahlil etildi:

1) Feministik adabiyotida tutgan oʻrni va ahamiyati: Ushbu asar adabiy tanqidchilar tomonidan turlicha baholangan: *“feminist distopiya”*²⁵, *“distopik tush”*²⁶, *“umumfeministik ertak”*²⁷, *“antifeministik xulq-atvorni qoralovchi siyosiy asar”*²⁸, *“distopiya nasriga feministik yondashuv”*²⁹, *“qul hikoyasi”*³⁰, *“kelajak bashorati”*³¹. K.Hauels asarga feminist distopiya sifatida qaralishini maʼqullab shunday deydi: *“This is a her-story, deconstructive view of patriarchal authority...>”*³². Garchi Etvud asarni feminist distopiya sifatida berilishiga qarshi boʻlsa-da, tadqiqotchi Anna Hauelsning taʼkidlashicha, *Oqsoch hikoyasi* inkor qilib boʻlmaydigan darajada kuchli feministik ogohlantirishni oʻzida mujassam etgan³³. Boshqa olimlar ham ushbu asarni ayollar uchun qoʻrqinchli “bashorat” sifatida talqin qiladilar. Asarning adabiyotshunoslar tomonidan feministik distopiya deb baholanishiga asosiy sabab – unda bosh qahramonlarning ayollar ekanligi, patriarxal jamiyatda mavjud gender tengsizliklari, ularning salbiy oqibatlari hamda bunday tuzumda ayollarning fojiali taqdiri chuqur va ogʻriqli tarzda tasvirlangani bilan bogʻliq.

2) Asarda zamonaviy jamiyatning satirik tasviri. Asar birinchi shaxs tilidan hikoya qilinib, bosh ayol qahramon Offred hukumat toʻntarilishidan soʻng oʻz oilasi, ishi va mol-mulkidan ayrilib (*“They’ve frozen them, she said<...>Any accounts with an F on it instead of an M”*³⁴), yangi tashkil boʻlgan distopik jamiyatda faqatgina reproduktiv salomatligi uchun bola tugʻib berish maqsadida yollab ishlatiladi. Uning maqomi “oqsoch” (“handmaid”) boʻlib, bu maqomdagi juvonlarga bir necha cheklovlar qoʻyiladi va jamiyatda ham boshqa maqomdagi ayollardan qizil kiyim kiyishlari bilan ajralib turadilar. Har bir ayol oʻz vazifasiga koʻra turli rangda kiyinadilar. Bu jamiyatning ayolni ayoldan ajratilishiga, yaʼni tabaqalashtirilishiga ishora qiladi: *“One kneeling woman in*

²⁵ Malak A. Margaret Atwood’s *The Handmaid’s Tale* and the dystopian tradition // *Canadian Literature*, 1987. – № 112. – P. 9-16.

²⁶ Ketterer D. Margaret Atwood’s *“The Handmaid’s Tale”*: A contextual dystopia // *Science Fiction Studies*, 1989. – № 16 (2). – P. 209-217.

²⁷ Bouson J.B. *The Handmaid’s Tale*. – Hackensack, New Jersey: Salem Press, 2010. – P. 3.

²⁸ Lehmann-Haupt Ch. Books of the times: *The Handmaid’s Tale* // *The New York Times*, 1986. January 27. Section C. – P. 24.

²⁹ Wisker G. Margaret Atwood: An introduction to critical views of her fiction. – London: Red Globe Press, 2011. – P. 95.

³⁰ Macpherson H.S. Women’s movement: Escape as transgression in north American feminist fiction. – The Netherlands: Rodopi, 2000.

³¹ Larson J.L. Margaret Atwood and the future of prophecy // *Religion and Literature*, 1989. – № 21 (1). – P. 27-61.

³² Howells A.C. Transgressing genre: A generic approach to Margaret Atwood’s novels // R.M.Nischik (Ed.), *Margaret Atwood: Works and impact*. – London: Camden House, 2000. – P. 142. “Bu uning hikoyasi, erkaklik jamiyatining dekonstruktiv koʻrinishi” – (tarjimalar oʻzimizniki – D.K.)

³³ Howells C.A. Margaret Atwood’s dystopian visions: *The Handmaid’s Tale* and *Oryx and Crake* // C.A.Howells (Ed.), *The Cambridge Companion to Margaret Atwood*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 161.

³⁴ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 162. *“M oʻrniga F boʻlgan barcha hisoblarni ular muzlatib qoʻydilar, u dedi”*.

red, one seated woman in blue, two in green”³⁵ yoki *“We turn the corner onto the main street, where there’s more traffic. Cars go by, black most of them, some grey and brown. There are other women with baskets, some in red, some in the dull green of the Marthas, some in the striped dresses, red and blue and green and cheap and skimpy, that mark the women of the poorer men”*³⁶.

Romandagi erkak personajlar ham o‘z vazifalari va ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra qat’iy toifalarga bo‘linadi: Xavfsizlikni ta‘minlovchi Qo‘riqchilar, harbiy va jazolovchi funksiyalarni bajaruvchi Farishtalar (Angels), yashirin kuzatuv va nazorat bilan shug‘ullanuvchi Ko‘z (Eyes) xizmati hamda jamiyat elitasi bo‘lgan Qo‘mondonlar (Commanders). An’anaviy distopik asarlarga xos ko‘rinishda, ushbu ierarxik tuzilma Gilaad jamiyatining totalitar tabiatini ochib beradi va har bir fuqaroning doimiy kuzatuv ostida yashashini ta‘minlaydi. Asardagi bosh qahramonning quyidagi so‘zlari bunga yorqin dalildir: *“Bu go‘yoki bizni himoya qilish uchun deyishadi, garchi bu fikr mutlaqo bema’ni bo‘lsa ham. Axir biz allaqachon yetarlicha “himoyalanganmiz”. Aslida esa, u mening josusim, men esa – uning”*³⁷. Demak, har bir inson boshqani kuzatish vositasiga aylanadi. Jamiyat har bir shaxsga kuzatuvchi rolini yuklab, uni zo‘ravonlik tizimining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada, odamlar bir-biriga do‘st emas, balki dushmanga aylanadi. Bu esa jamiyatda ishonch, birdamlik va har qanday qarshilik ko‘rsatish imkoniyatini butunlay yo‘qqa chiqaradi.

Jamiyatdagi ayolga qo‘yilgan turli cheklovlar orqali asarda jamiyatning nuqsonlarini satirik tarzda tasvirlanadi. Jumladan, hukumatning ko‘chalardagi do‘kon, rasta va turli joy nomlarini olib tashlab ularni turli rasm hamda belgilarga almashtirishi aholini savodsizlantirishga qaratiladi: *The store has a huge wooden sign outside it, in the shape of a golden lily, Lilies of the Field, it is called<...>Now places are known by their signs alone*”³⁸. “Oqsochlar” uchun ajratilgan xonalarda ayolga xos bo‘lgan kundalik buyumlar – taroq, igna, hatto ko‘zgu mavjud emasligi, shuningdek, qo‘l va badan uchun mo‘ljallangan losyon yoki kremlardan foydalanish taqiqlangani ularga o‘ziga oro berishni, ya’ni ayollik tabiatini ifodalashni man etgan holda, ayollikni yashirish va yo‘q qilishga qaratilgan ideologik nazoratni ifodalaydi: *“There’s no longer any hand lotion or*

³⁵ Atwood M. The handmaid’s tale. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 97. *“Tizzalab o‘tirgan bir ayol qizil kiyimda, o‘tirgan bir ayol ko‘k kiyimda, ikkitasi yashil kiyimda”*.

³⁶ Atwood M. The handmaid’s tale. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 24. – *“Biz asosiy ko‘chaning burchagiga burilamiz, u yerda tirbandlik ko‘proq. Mashinalar o‘tib ketadi, ulardan ko‘pchiligi qora, ba‘zilari kulrang va jigarrang. Bu yerda boshqa savat ko‘targan ayollar bor, ba‘zilari qizil, rangda, ba‘zilari xira yashil rangli kiyimdagi Marfalar; boshqalari yo‘l-yo‘l liboslarda, qizil va ko‘k, yashil, arzon va g‘ijim kiyimlardagi ayollar bo‘lib, kambag‘al erkaklarning rafiqalarini ifodalaydi”*.

³⁷ Atwood M. The handmaid’s tale. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 20. *“Bizga juftsiz hech qayerga borishimizga ruxsat berilmaydi. Bu bizning himoyamiz uchun bo‘lsa kerak, garchi bu tushuncha bema’ni bo‘lsa ham, biz allaqachon yaxshi himoyalanganmiz. Haqiqat shundan iboratki, men uning josusi bo‘lganimdek, u ham mening josusim”*.

³⁸ Atwood M. The handmaid’s tale. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 25. *“O‘ng tomonda biz ko‘ylaklarga buyurtma beradigan do‘kon bor. Ba‘zilar ularni Odatlar deyishadi<...> Do‘konning tashqarisida oltin nilufar shaklidagi ulkan yog‘och belgi bor, “Dala nilufarlari” deb ataladi<...> Endi joylar faqat belgilari bilan nomlanadi”*.

face cream, not for us. Such things are considered vanities”³⁹. Biroq *“I can’t avoid seeing, now, the small tattoo on my ankle. Four digits and an eye, a passport in reverse. It’s supposed to guarantee that I will never be able to fade, finally, into another landscape. I am too important, too scarce, for that, I am a national resource”*⁴⁰ kabi jummalarda ayollarning hukumat uchun faqatgina maqsadni bajaruvchi vosita sifatida ko‘rilishi, ularning shaxs sifatida mavjud emasligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Quyidagi ifodalar esa ayollarning jamiyatda faqat sog‘lom reproduktiv funksiyasigina qadrlanishini, ularning tashqi go‘zalligi esa mutlaqo ikkinchi darajali va ahamiyatsiz deb qaralishini ochib beradi: *“For our purposes your feet and your hand are not essential”*⁴¹.

3) Diniy-falsafiy xususiyatlari. Romandagi yangi davlat – Galaad nomi Injildan olingan bo‘lib, u Iordaniyaning sharqiy tog‘li hududiga ishora qiladi⁴². Galad birinchi bor Injilda Jakob va Laban o‘rtasidagi uchrashuv kontekstida tilga olinadi⁴³. Asarda Galad Puritan teokratiyasi qonun-qoidalari asosida boshqariladigan davlat sifatida tasvirlanadi. Bu jamiyatda nafaqat erkaklar ustunlikka ega, balki ayollar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar ham taqiqlanadi. Ayollar bir-biriga murojaat qilganda *“Praise be”* (Hamdu sanolar bo‘lsin) yoki *“May the Lord open”* (Xudo yo‘l ochsin) kabi iboralarni ishlatadi, bu iboralar Injildan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan bo‘lib, diniy nazoratning qanchalik chuqur ekanini ko‘rsatadi. Romandagi teokratik tuzumda diniy cheklovlar ayollarning hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi: ular uzun ko‘ylak kiyishga, yuz va boshlarini yopuvchi kiyimlardan foydalanishga majburdirlar; erkaklar bilan erkin suhbatlashish, ta‘lim olish, siyosiy faoliyatda ishtirok etish taqiqlangan; ayollar faqatgina uy-ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lishi kerak. Bu kabi qoidalar Puritan teokratiyasining qat‘iy diniy me‘yorlariga mos keladi. Asarda ikki turdagi jamiyat – eski demokratik tizim va Galad teokratiyasi – bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lsa-da, har ikkisi ham ayollar uchun baxt keltirmaydi. Bu esa feministik distopiyaning asosiy belgisidir. Muallif ayolning baxtsizlik holatini bir necha omillar bilan bog‘laydi: ayolning shaxs sifatida tan olinmasligi, an‘anaviy oila qadriyatlarining yo‘qolishi, erkinlikning har tomonlama – jismoniy va lisoniy – cheklanishi, ijtimoiy diskriminatsiya, ya‘ni ayollar o‘rtasida ishonch va do‘stlik rishtalarining uzilishi, insonlarni bir-biriga qarshi qo‘yish, ayollarni savodsiz va bo‘ysunuvchi holatga keltirish hamda ularning psixologiyasiga tizimli bosim o‘tkazish. Bu elementlar romanning diniy-falsafiy qatlamida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, feministik distopiya janrining muhim xususiyatlarini namoyon etadi.

³⁹ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 89. *“Endi hech qanday yuz kremi yoki qo‘l lasyon, biz uchun emas. Ular be‘manilik deb hisoblanadi”*.

⁴⁰ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 64. *“Men to‘pig‘imdagi kichkina tatuirovkani ko‘rishga majburman. To‘rt raqam va ko‘z, teskaridan shaxsni tasdiqlovchi hujjat. Bu men hech qachon, nihoyat, boshqa manzaraga aylana olmasligimni kafolatlaydi. Men juda muhim, juda noyobman, chunki men milliy resursman”*.

⁴¹ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 10. *“Bizning maqsadimiz uchun sizlarning qo‘l yoki oyoqlaringiz muhim emas”*.

⁴² Sonal E. *New Gilead society in the city of Gilead depicted in the novel “The Handmaid’s Tale” by Margaret Atwood* // *Journal of Social Sciences and Humanity Studies*, 2018. – № 4 (6). – P. 7-13. – P. 7.

⁴³ URL: <https://www.britannica.com/place/Gilead-ancient-region-Palestine>. (murojaat sanasi: 08.08.2023).

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Romanda muallif tanqidiy qarashlarini ifodalashning o‘ziga xos shakllari*” deb nomalanadi va unda romanning yozilishiga sabab bo‘lgan voqealar keltiriladi. Asar g‘oyasini Margaret Etvud 1970-80-yillarda AQShda hukm surgan puritan teokratiyasi va siyosiy hayotdagi voqealardan ilhomlanib yaratgan. U bu voqelikni distopiya janrida yoritishni maqsad qilib, zamonaviy jamiyatdagi xavfli tendensiyalarga ogohlantiruvchi nazar bilan qaraydi. Yozuvchi tanqidiy qarashlarini birinchi shaxs tilidan hikoya qilish orqali ifodalaydi – bu uslub qahramon hayoti bilan bog‘liq xotira va voqealarni parcha-parcha tarzda, ammo izchil ravishda bayon qilish imkonini beradi. Shuningdek, rivoyaning birinchi shaxs nomidan bo‘lishi voqealarning ishonarliligi va samimiyligini kuchaytiradi. Asarning asosiy mavzusi – totalitar tuzumda tug‘ilish darajasining keskin pasayishi va bolalarning zaharli moddalar hamda radiatsiya oqibatida nuqsonli tug‘ilishi kabi ekologik hamda ijtimoiy muammolardir. Yozuvchi ushbu masalaga hukumatning munosabatini Offred va boshqa oqsochlar timsolida fosh etadi. Ularning faqat biologik funksiyani bajaruvchi vositaga aylantirilishi, shaxsiy erkinlikdan butunlay mahrum etilishi asarda gender tengsizlikning ayanchli oqibatlarini ochib beradi. Shu tarzda, Etvud feministik distopiyaning asosiy mezonlari orqali ogohlantiruvchi va tanqidiy g‘oyalarni ilgari suradi.

Yozuvchining badiiy mahorati uning matnga intertekstlar, diniy alluziyalar va jahon adabiyoti asarlariga ishoralarni mohirona kiritishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu elementlar nafaqat asar voqealarini madaniy va falsafiy qatlamlar bilan boyitadi, balki uning mazmuniy chuqurligini kuchaytiradi hamda Galadning xayoliy dunyosi bilan tarixiy va adabiy kontekstlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Jumladan, “*I get up out of the chair, advance my feet into the sunlight, in their red shoes, flat-heeled to save the spine and not for dancing*”⁴⁴. Ushbu epizodda Etvud Gans Kristian Andersenning “*Qizil etiklar*” ertagiga intertekstual ishora qiladi – unda kichkina qizaloq sehrli etiklarda to‘xtovsiz raqsga tushishga majbur bo‘ladi. Biroq roman kontekstida bu etiklarning badiiy funksiyasi o‘zgacha talqin qilinadi: ular raqsni emas, balki Galaad jamiyatidagi xizmatkor ayollarning bo‘ysunuvchi maqomini, ularning majburiy reproduktiv (farzand tug‘ish) funksiyasini anglatuvchi ramzga aylanadi.

Shuningdek, matnda Injildan keltirilgan quyidagi iqtibos uchraydi: “*Behold my maid Bilhah. She shall bear upon my knees, that I may also have children by her*”⁴⁵. Bu esa Tavrot (Eski Ahd)dagi voqea – Yoqubning bepusht rafiqasi Raxil o‘z cho‘risi Bilhani eriga berib, u orqali farzand ko‘rishga urinadi, shunga berilgan alluziya hisoblanadi⁴⁶. Bunday diniy ishoralar Galaddagi tuzumning mafkuraviy asosini mustahkamlab, ayollarning ijtimoiy va shaxsiy huquqlardan mahrum etilgan, faqat biologik vazifani bajaruvchi vositaga aylantirilganini ko‘rsatadi.

⁴⁴ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 9. “Men stuldan turib, raqs tushish uchun emas, umurtqa pog‘onasini saqlab qolish uchun tekis poshnali qizil tuflida, oyoqlarimni quyosh nuriga olib boraman”.

⁴⁵ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 82. “*Mana, bu mening cho‘rigim Bilha. U mening tizzamda tug‘adi, toki men ham undan farzandli bo‘lay*”.

⁴⁶ Živić J. A dystopian society in Margaret Atwood’s *The Handmaid’s Tale*: MA ... thes. – Osijek, 2014. – 40 p.

“Oqsoch hikoyasi” romanida Margaret Etvud gender tengsizligining halokatli oqibatlarini yoritadi. Galad jamiyatidagi patriarxal va totalitar tuzum ayollarni faqat tug‘ish uchun mavjud bo‘lgan reproduktiv resurs sifatida ko‘radi, ularning barcha boshqa huquqlarini inkor etadi. Bu jarayon nafaqat jismoniy, balki ruhiy halokatga olib keladi. Asarda ayol erkinligi masalasi tarixiy, ijtimoiy va diniy kontekstda yoritilib, yozuvchi ayolning jamiyatdagi o‘rnini tahlil etishda tarixiy dalillardan mahorat bilan foydalanadi.

Etvud “Oqsoch hikoyasi”da turli ayol obrazlarini yaratib, ularni tasvirlashda metafora, o‘xshatish, ramziylik kabi badiiy vositalardan samarali foydalangan. Shuningdek, u tarixiy voqealarga intertekstual murojaat qilib, asarning mazmunini qatlamini chuqurlashtirgan. Keltirilgan *“Some of you shallow-rooted. Think of yourselves as seeds”*⁴⁷ jumlasida Injildagi urug‘ sepuvchi haqidagi masalga ishora – ya’ni alluziya qo‘llangan. Bu ishora diniy targ‘ibot uchun emas, balki ifodali badiiy obraz yaratish uchun xizmat qiladi. Ayollar ildizsiz urug‘larga qiyoslanadi, bu esa ularning shaxsiyati, mustaqilligi va ichki tayanchidan mahrum qolganini anglatadi. Ushbu alluziya ularning himoyasizligi, ruhiy va ijtimoiy ojizligini yanada chuqurroq his ettiradi hamda totalitar tuzum sharoitida kechayotgan fojiaiy holatini yoritadi.

*“Now that she’s the carrier of life, she is closer to death, and needs special security. Jealousy could get her, it’s happened before”*⁴⁸. Bu yerda homilador oqsoch avlodni davom ettirishdagi rolini ta’kidlaydi, shu bilan birga, u hayot beruvchi bo‘lsa-da, o‘limga yaqin holatda ekanligi bilan xavf ostida ekani ko‘rsatiladi.

Shuningdek, oqsochlarga nisbatan qo‘llanilgan *“trained pig”*⁴⁹ (o‘rgatilgan cho‘chqa), *“caged rats”*⁵⁰ (qafasdagi kalamushlar), *“two-legged wombs”*⁵¹ (ikki oyoqli bachadonlar) kabi iboralar ularning faqatgina biologik funksiyaga ega, jamiyatda shaxs emas, balki vosita sifatida qabul qilinishini ifodalovchi kuchli metaforalardir. Bu tasvirlar orqali Etvud ayollar insoniylikdan mahrum etilgan, nazorat ostidagi mavjudotlar sifatida ko‘rilishini fosh etadi.

Romanda ayollar obrazlari qat’iy belgilangan ijtimoiy rollar, kiyim ranglari, kundalik vazifalar va mafkuraviy cheklovlar asosida ajratilgan. Totalitar jamiyatda har bir ayol sinfi o‘ziga xos tashqi ko‘rinish orqali tanib olinadi. Tadqiqot davomida ayollar ijtimoiy mavqeyi va badiiy detallar asosida beshta asosiy guruhga ajratildi. Bu guruhlash, bir tomondan, roman ichidagi ayollarning itoatkor yoki qarshilik ko‘rsatuvchi pozitsiyalarini tahlil qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, Etvud yaratgan gender tengsizliklari va nazorat tizimining badiiy ifodasini ochib beradi. Quyidagi jadval aynan shu mezonlar asosida tuzilgan.

⁴⁷ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 19. “Ba’zilaringizning ildizingiz sayoz. O‘zingizni urug‘dek tasavvur qiling”.

Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 77. *“Endi u hayot elchisi, u o‘limga yaqinroq va alohida himoyaga muhtoj. Rashk, bu avval ham bo‘lganidek uni olishi mumkin edi”*.

⁴⁹ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 20. “O‘rgatilgan cho‘chqalar”.

⁵⁰ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 84. “Qafasdagi mushuklar”.

⁵¹ Atwood M. *The handmaid’s tale*. – New York: Fawcett Crest, 1985. – P. 127. “Ikki oyoqli bachadonlar”.

Margaret Etvudning “Qo‘l ostidagi xizmatchi ayol hikoyasi” romanidagi ayol obrazlari tipologiyasi

№	Obraz turi	Namoyondalari	Jamiyatdagi ijtimoiy roli	Simvolika	Intertekstual alluziyalar
1	Reproduktiv-itoatkor turdagi ayol	Offred, Janin, Glenova	Qo‘l ostidagi xizmatchilar (Handmaids), elita oilalar uchun farzand tug‘uvchi ayollar	Qizil rang – qon, unumdorlik, bo‘ysunish	Bilxa, Raxil (Qadimgi Ahddan)
2	Imtiyozli rasmiy xotinlar	Serena Joy	Komandorlarning rasmiy rafiqalari, elita ayollar	Moviy-yashil (biryuza) rang – maqom va imtiyoz	Raxil (Qadimgi Ahddan)
3	Isyonkor turdagi ayollar	Moira	Tizimga qarshi kurashuvchi, bo‘ysunishni rad etuvchi ayol	Qizil (qo‘l ostidagi), keyinchalik boshqa ranglar – maqom almashuvi	Moira lar (yunon mifologiyasidan)
4	Mafkuraviy nazoratchilar	Xola Lidiya	Xolalar (Aunts), qo‘l ostidagi ayollarni nazorat qiluvchi va tarbiyalovchi ayollar	Jigarrang rang – hokimiyat va nazorat	Lidiya (Yangi Ahddan)
5	Maishiy xizmat ko‘rsatuvchi turdagi ayollar	Rita	Marfalar (Marthas), uy ishlarini yurituvchi ayollar	Och-yashil rang – xizmat va parvarish	Marfa (Yangi Ahddan)

Margaret Etvudning romanida gender tengsizlikining insoniyat halokatiga olib keluvchi oqibatlarini tadqiq etiladi. Galad jamiyatidagi patriarxal tizim va totalitar hokimiyat ayollarning jamiyatdagi o‘rnini keskin cheklab, ularni faqat reproduktiv resurs sifatida ko‘radi. Ayollarni “oqsoch” sifatida ishlatish, ularning borlig‘i faqat farzand tug‘ish uchun kerak degan g‘oyani ilgari surish orqali, ularni barcha boshqa huquqlardan mahrum qilish – bu faqat jismoniy emas, balki psixologik yemirilish holati sifatida tasvirlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Meddaddam” trilogiyasining g‘oyaviy-falsafiy xususiyatlari** deb nomlanadi. Ushbu bob 3 fasldan iborat bo‘lib, 1-faslida *“Trilogiyada postapokaliptik jamiyatning diniy, siyosiy va ekologik mavzular talqini”* tadqiq etilgan.

Trilogiya uch romandan iborat bo‘lib, tanqidchilarning birinchi roman – “Oriks va Kreyk” haqida: “Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” asarining

zamonaviy dunyodagi talqini”⁵², “Meddaddam” trilogiyasi halokatli bashorat emas, balki Dantening “Ilohiy komediya”si kabi uch tomonlama komediya”⁵³; shuningdek, ikkinchi romani – “Toshqin yili” haqida S.Uotkinsning “Toshqin yili” va “Oriks va Kreyk”dagi Jimmi haqidagi fojiali ertakning kulgili qayta ishlangani⁵⁴ deb ta’riflaydilar. Ushbu yondashuvlar trilogiyaning adabiy yuksakligini, g’oyaviy murakkabligi ilmiy-tanqidiy jihatdan asoslab, uning yuqori mavqeini belgilaydi.

Margaret Etvudning *MaddAddam* trilogiyasi zamonaviy jamiyatning texnologik taraqqiyot bilan bog’liq xavf-xatarlari, insoniyatning axloqiy tanazzuli va tabiat bilan bo’lgan ziddiyatlarini chuqur tahlil etuvchi murakkab distopik asardir. Trilogiyaning har bir romanida (*Oriks va Kreyk*, *Toshqin yili*, *MeddAddam*) diniy qadriyatlardan voz kechgan (postdiniy) va postgumanistik jamiyatni tasvirlanadi – bu jamiyatda an’anaviy e’tiqodlar o’z kuchini yo’qotgan, inson e’tibori esa to’liq moddiy manfaat, texnologik yutuqlar va biologik nazoratga qaratilgan.

Etvud bu jarayonni jamiyatdagi insoniy qadriyatlarning yemirilishi, shaxsiyatning toptalishi va insonning shunchaki iste’molchi hamda genetik resurs sifatida qaralishi orqali ochib beradi⁵⁵. Ayniqsa, “Oriks va Kreyk” romanida Kreyk tomonidan yaratilgan sun’iy mavjudotlar – klon-odamlar (Kreyklar) inson istak va ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus genetik konstruksiya asosida ishlab chiqariladi. Ular bozorda sotiladigan oddiy mahsulotga aylangan, bu esa insonning shaxsi va tanasining tijorat vositasiga aylantirilishini ifodalaydi.

Romanlarda aks ettirilgan siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar, xususan, “HealthWyzer” kabi yirik korporatsiyalar – agressiv, ilm-fan bilan boshqariladigan kapitalistik tizimni tasvirlaydi. Bu korporatsiyalar jamiyatning muammolarini hal qilish o’rniga, ataylab sun’iy ehtiyojlar yaratish, odamlarda dori vositalariga qaramlik hosil qilish va ularni doimiy iste’mol tizimiga bog’lab qo’yish orqali foyda olishga intiladi. “HealthWyzer” olimlari tajriba o’tkazishda inson hayotiga yuksak qadriyat sifatida emas, balki sinov materiali sifatida qaraydi. Bu holat ilm-fanning insoniyat farovonligi uchun emas, balki boylik va kuch vositasiga aylanishi, olimlarning axloqiy tanazzuli va johilligini ochib beradi. Tanqidchi Bruks bu borada shunday deydi: “*Etvud uzoq yillardan beri jamiyatni qiynab kelayotgan va vaqt o’tishi bilan utopik umidlarda ham, unga hamrohlik qiluvchi distopik qo’rquvlarda ifodalanadigan chuqur tashvishni yoritadi: ilmiy yutuqlar kutilgan ideal kelajakni emas, balki insoniyatni vahshiy va insongacha bo’lgan o’tmishga qaytaradi*”⁵⁶.

⁵² Howells C.A. Margaret Atwood’s dystopian visions: *The Handmaid’s Tale* and *Oryx and Crake* // C.A.Howells (Ed.), *The Cambridge Companion to Margaret Atwood*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 173.

⁵³ Northover R.A. Ecological Apocalypse in Margaret Atwood’s *MaddAddam* Trilogy // *Studia Neophilologica*, 2016. – № 88. – P. 84; 81-95.

⁵⁴ Watkins S. Future shock: Rewriting the apocalypse in contemporary women’s fiction // *Lit: Literature Interpretation Theory*, 2012. – № 23 (2). – P. 119-37.

⁵⁵ Kuźnicki S. Margaret Atwood’s dystopian fiction: *Fire is Being Eaten*. – UK: Cambridge Scholars Publishing, 2017.

⁵⁶ Brooks B.J. “We’re using up the Earth. It’s almost gone”: A return to the post-apocalyptic future in Margaret Atwood’s *The Year of the Flood* // *The Journal of Commonwealth Literature*, 2011. – № 46 (1). – P. 17.

Trilogiyada soxta diniy g'oyalar ham muhim ideologik maydon sifatida ko'rsatiladi. Postdiniy jamiyatga qaramay, diniy tuzilmalar davlat va korporativ manfaatlarga xizmat qiladi. Masalan, "Petroleum Cherkovi" yoki ruhoniylar Rev kabi shaxslar dindan siyosiy vosita sifatida foydalanadi. Ularning faoliyati muqaddaslik niqobi ostida iqtisodiy va mafkuraviy manipulyatsiyalarni yashiradi. Bunga qarama-qarshi tarzda, "*Xudoning bog'bonlari*" nomli ekologik-fanatizmga asoslangan diniy guruh eko-himoyachilikni targ'ib etadi va insoniyat bilan tabiat o'rtasidagi buzilgan muvozanatni tiklashga urinadi. Bu qarama-qarshi yondashuvlar jamiyatda diniy g'oyalarning qanday turlicha yo'naltirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, "*MaddAddam*" trilogiyasi insoniyatning texnokratik kelajak sari harakatida yo'qotayotgan insoniy qadriyatlarini fosh etadi. Etvud postapokaliptik obrazlar va yemirilgan ijtimoiy modellar orqali axloq, inson tabiati hamda ekologik ong zarurligi masalalarini ko'taradi. Uning ogohlantiruvchi – nazoratsiz taraqqiyot va axloqiy nisbiylikning halokatli kuchi haqida – ushbu trilogiyani XXI asr uchun, ayniqsa, dolzarb qiladi.

"*MaddAddam*" trilogiyasi diniy, siyosiy va ekologik mavzular bilan bir qatorda quyidagi umuminsoniy muammolarni ham tahlil qiladi: diniy oqimlar o'rtasidagi ziddiyatlar, e'tiqodning siyosatga bo'ysundirilishi, inson manfaatining moddiy foyda yo'lida qurbon qilinishi, mafkuralarning ekologiyaga ta'siri, ilm-fanning atrof-muhitni yemirishda ishtirok etishi va ilmiy hamjamiyatning axloqiy tanazzuli.

Etvud yaratgan distopik olam – bu yaqinlashib kelayotgan ekologik falokat haqida badiiy bashorat bo'lib, unda hukumat xatolari va texnologiyalarga ko'r-ko'rona ishonch tabiat hamda insoniyat halokatining asosiy omillari sifatida tasvirlanadi. Aynan shu jihatlar "*MaddAddam*" trilogiyasining dolzarbligi va keng ommaviy qiziqishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "Trilogiyada ekofeminizm va irsiy injeneriya masalasi" deb nomlanadi. Ekofeminizm konsepsiyasi *MaddAddam* trilogiyasining deyarli barcha voqealarida namoyon bo'lib, ushbu nazariy yondashuv tadqiqotimizning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Trilogiyada Ona Yerga nisbatan mas'uliyatsizlik, shuningdek, ilm-fan yutuqlarining noto'g'ri yo'nalishda qo'llanilishi insoniyat kelajagi uchun qanday xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi aniq tasvirlangan.

Ekofeminizmda ayol va tabiat bir-biriga chambarchas bog'langan tushunchalar sifatida qaraladi. Ikkalasiga ham tarix davomida hukmron jamiyatlar tomonidan zulm va bosim o'tkazilgan. Ayol qanday ekspluatatsiya qilingan bo'lsa, tabiat ham shunday talon-taroj qilingan. Ayol – hayot manbai, tabiat esa – hayotni qo'llab-quvvatlovchi kuch sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun ekofeminizmda ayol huquqlari va tabiatga nisbatan adolatli munosabat bir butun masala sifatida ko'riladi. Etvud trilogiyasida bu holat ayol obrazlari va atrof-muhitga nisbatan adolatsizliklar orqali ochib beriladi. Xususan, "*Toshqin yili*" asaridagi bosh qahramon – Tobi hayoti davomida zo'ravonlik, mehrsizlik va beqarorlik muhitida ulg'aygan. "*Xudoning bog'bonlari*" diniy guruhiga qo'shilgach, u Odam Ato Birinchi va Pilar obrazlari orqali mehr, qo'llab-quvvatlash va ichki tiklanishni his

etadi: *“Toby couldn’t remember being hugged as a child. For the children it must have been a formality, like hugging a distant aunt, but for her it was something she couldn’t define: fuzzy, softly intimate. Like being nuzzled by rabbits”*⁵⁷. Amanda esa boshidan kechirgan jinsiy zo‘ravonlikdan so‘ng ruhiy tushkunlik holatida yashaydi. Amanda o‘z dunyosida yashayotgan mustaqil qahramon edi, lekin u jinsiy zo‘ravonlik tufayli azob-uqubatlarga duchor bo‘ladi: *“She used to be so strong: nothing used to frighten her. She’d been a tough pleebat, she’d lived by her wits, she could handle anything<...> whatever was done to her by the Painballers – must have been extreme”*⁵⁸ “Oriks va Kreyk”ning ayol qahramoni – Oriks ham Tobi kabi bolaligidan ishlashga majbur bo‘ladi, jinsiy zo‘ravonlikni boshidan kechiradi va bunga esa onasi tomonidan bola savdosi bilan shug‘ullanuvchilarga sotib yuborilgani sabab bo‘ladi: *“Oryx said it must have been too bad for a child not to be chosen. Things would be worse for it in the village then, it would lose value, it would be given less to eat. She herself had been chosen first of all”*⁵⁹. Ekofeministik asarlarning bir xususiyati: Ayolga zo‘ravonlik aks etgan jamiyatda tabiatga va tirik mavjudotlarga ham g‘amxo‘rlik mavjud bo‘lmasligi bo‘lib, buni trilogiyaning har bir romanida kuzatishimiz mumkin. “MeddAddam” trilogiyasidagi ayol qahramonlar distopiya dunyosining shunchaki passiv qurbonlari emas. Ular hikoyani boshqaradigan, an‘anaviy gender rollariga qarshi turadigan va yanada adolatli hamda barqaror kelajak haqida tasavvurni taklif qiladigan murakkab, bardoshli va muhim shaxslardir.

Ekoadabiyotning yana bir muhim xususiyati – tabiat va hayvonlarning buyumga aylantirilishi, ya‘ni ular ustidan tovar sifatida foydalanish holatlari MaddAddam trilogiyasining har bir romanida yaqqol aks etadi. Garchi bu holat zamonaviy jamiyatda odatiy va e‘tiborsiz qaraladigan hodisaga aylangan bo‘lsa-da, Etvud bunday munosabatni tanqid ostiga olib, unga jiddiy yondashishni va qarshi kurashishni targ‘ib qiladi. Jumladan, “Secretburgers” nomli yemakxona haqidagi misolga e‘tiborimizni qaratamiz: *“The secret of SecretBurgers was that no one knew what sort of animal protein was actually in them<...>The meat grinders weren’t 100 per cent efficient; you might find a swatch of cat fur in your burger or a fragment of mouse tail. Was there a human fingernail, once?”*⁶⁰ Ushbu parcha orqali bu yemakxonada inson go‘шти ham ishlatilishi ma‘lum bo‘ladi.

Hayvonlarni ovlash, o‘ldirish va mahsulot sifatida foydalanishdan tashqari, ularning genetik tuzilmasini o‘zgartirish, turli xil chatishtirish tajribalari o‘tkazish,

⁵⁷ Atwood M. The year of the flood. – London: Bloomsbury, 2009. – P. 32. “Tobi bola kabi quchoqlanganini eslay olmaydi. Bolalar uchun bu uzoqdagi xolasini quchoqlash kabi rasmiyatchilik bo‘lsa kerak, lekin u uchun bu ta‘riflab bo‘lmaydigan narsa edi: momiq, yumshoq, samimiy. Huddi quyonlar uni iskayotgandek”.

⁵⁸ Atwood M. MaddAddam. – New York: Nan A. Talese, 2013. – P. 94. “U juda kuchli bo‘lishga odatlangan edi: uni hech narsa qo‘rqitolmasdi. U qattiqqo‘l odam edi, u o‘z aql-zakovati bilan yashardi, u <...>peynbollerlar unga haddan ortiq zarar yetkazgan bo‘lishidan qat‘i nazar hammasiga bardosh bera olardi”.

⁵⁹ Atwood M. Oryx and Crake. – London: Virago Press, 2004. – P. 85. “Oriksning aytishicha, bolaning tanlab olinmasligi bola uchun juda og‘ir bo‘lardi. Qishloqda uning ahvoli yomonlashardi, uni hech kim qadrlamasdi, kam ovqat berishardi. Uning o‘zi birinchi navbatda tanlangan edi”.

⁶⁰ Atwood M. The year of the flood. – London: Bloomsbury, 2009. – P. 22. “Secretburgersning siri shunda ediki, ularning tarkibida qanday hayvon oqsili mavjud ekanligini hech kim bilmas edi<...> Go‘st maydalagichlar 100 foiz samarali emas edi; burgeringizdan mushuk mo‘ynasining namunasini yoki sichqon dumining parchasini topishingiz mumkin. Bir marta odamning tirnog‘i bormidi?”

kerakli tana a'zolarini ajratib olib, qolgan qismlarini shunchaki tashlab yuborish holatlari quyidagi parcha orqali ifodalanadi: *"On the way back to the building, she finds the tail of a dog beside the path- an Irish settler, it looks like- its long fur matted with burrs and twigs. <....>they are always dropping things<... >fingers were the most."*⁶¹ *"The pigoon organs could be customized, using cells from individual human donors, and the organs were frozen until needed. It was much cheaper than getting yourself cloned for spare parts..."*⁶² Bu yerda "pigoon" – Margaret Etvud tomonidan o'ylab topilgan sun'iy hayvondir. Oriks va Kreyk romanida u inson hujayralari joylashtirilgan genetik modifikatsiyalangan mavjudot bo'lib, donor sifatida foydalaniladi. Yana bir parcha esa "Rarity" nomli restoran haqida bo'lib, unda yo'qolib borayotgan va xavf ostidagi hayvonlardan tayyorlangan taomlar taqdim etilishi tasvirlanadi.

MaddAddam trilogiyasini zamonaviy hayotning oynaviy tasviri sifatida talqin qilish mumkin, chunki undagi tanazzul sabablari bugungi real muammolar bilan bevosita bog'liq. Asarlarda haddan tashqari iste'mol, tabiiy resurslar tanqisligi va sun'iy oziq-ovqat modellarining yaratilishi insoniyatning ochko'zligi hamda atrof-muhitga zararli munosabatini fosh etadi.

Etvud ilm-fan va texnologiyalarning atrof-muhitga yetkazgan zarari bilan birga, ularning imkoniyatlarini ham ko'rsatadi. Kreyk tomonidan yaratilgan Kreykerlar sun'iy, ammo muvozanatli va zarar keltirmaydigan jamiyat modelini ifodalaydi. Ular tabiat bilan uyg'un yashab, iyerarxiya, din, mol-mulk kabi zo'ravonlik keltiruvchi tushunchalardan holi: *"In fact, as there would never be anything for these people to inherit, there would be no family trees, no marriages, and no divorces. They were perfectly adjusted to their habitat, so they would never have to create houses or tools or weapons, or, for that matter, clothing. They would have no need to invent any harmful symbolisms, such as kingdoms, icons, gods, or money. Best of all, they recycled their own excrement"*⁶³. Biroq trilogiya yakunida pandemiya orqali texnologiyalarning cheklangan va zaif tabiati fosh etilib, Etvud texnologiya insoniyat muammolarining yagona va to'liq yechimi emasligini ta'kidlaydi.

Bobning uchinchi fasli "Romanlarda obrazlar tizimi va ularning badiiy o'ziga xosligi" tahlil etilgan. Margaret Etvudning "Oriks va Kreyk" romani zamonaviy ekologik, ijtimoiy va axloqiy muammolarni chuqur tahlil qiluvchi asar bo'lib, undagi markaziy obrazlar – Oriks va Kreyk – butun trilogiyaning g'oyaviy asosini belgilab beradi. Ularning ismlari yo'qolish metaforasi sifatida xizmat qiladi. "Oriks va Kreyk" romanida bosh qahramon bo'lgan Kreykning ismi chuqur

⁶¹ Atwood M. *The year of the flood*. – London: Bloomsbury, 2009. – P. 13. "Binoga qaytib ketayotib, u yo'lning yonida itning dumini topdi – irlandiyalik ko'chmanchi itga o'xshaydi, uzun mo'ynasi burmalar va novdalar bilan qoplangan.<> ular har doim narsalarni tashlab ketishadi<...>asosan barmoqlarni".

⁶² Atwood M. *Oryx and crake*. – London: Virago Press, 2004. – P. 16. *"Pijun organlari yakka inson donorlarining hujayralaridan foydalanishga moslashtirilgan edi va organlar kerak bo'lgunga qadar muzlatilardi. Bu birgina organ o'zingizni klonlashdan ancha arzon edi"*.

⁶³ Atwood M. *Oryx and crake*. – London: Virago Press, 2004. – P. 225. "Aslida, bu odamlar uchun meros bo'ladigan hech narsa bo'lmaganidek, na shajaralar, na nikohlar, na ajralishlar bo'ladi. Ular yashash joylariga mohirona moslashtirilganlar, shuning uchun ular hech qachon uylar, asboblari yoki qurollarga muxtoj bo'lmaydilar, shuningdek, kiyinishga ham. Ularga shohliklar, piktogrammalar, xudolar yoki pullar kabi zararli timsollarni o'ylab topishga hojat qolmaydi. Eng muhimi, ular o'zlarining najaslarini qayta ishlaydilar".

ramziy ma'noga ega. Ingliz tilida *Crake* – yo'qolib borayotgan botqoqlik qushi (korostel/chug'ur) nomi bo'lib, bu ism allaqachon o'zida yo'qolish, zaiflik va tabiatning yemirilishi motivini mujassam etadi. Ekologik mavzularni doimiy ilgari suruvchi Etvud o'z qahramonlariga ataylab hayvonlar nomini beradi: Kreyk – qush, Oriks esa – antilopa. Bu ismlar qahramonlarni shaxs sifatida ajratish bilan birga, global ekologik va axloqiy inqiroz belgilarini ham bildiradi. G'oyat zukko olim bo'lgan Kreyk insoniyatni yo'q qiladi va uning o'rniga yangi – "uyg'un va zararli bo'lmagan" – mavjudotlar turini, ya'ni "*kreyklar*"ni yaratadi. U bu orqali insonning vayronkor tabiati o'rniga muvozanatli jamiyat barpo qilishga urinadi. Biroq uning ismining yo'qolib borayotgan qush bilan bog'lanishi, bu rejaning bekorchi va halokatli ekani haqida yashirin ogohlantiruvdir. Etvud aynan shu obraz orqali shuni uqtiradi: ilm-fan niqobi ostida zo'ravonlik bilan "ideal" dunyo qurishga urinish – nafaqat tabiatning, balki insoniyatning ham yana bir yo'qolish shakliga olib keladi. Adabiyotshunos olim K.Steyn Kreyk obrazini "*M.Shellining "Frankenshteyn" idagi bosh qahramon kabi ilm-fandan noto'g'ri foydalanishda o'xshash xususiyatlarga ega tirik mavjudot*"⁶⁴, deb ta'riflaydi.

Oriks esa butunlay boshqa olamdan kelgan. U bolaligida qashshoqlik, jinsiy ekspluatatsiya, bolalar savdosi va fohishalik qurboni bo'lgan. Uning sirli, marg'ub va bir vaqtning o'zida fojiali taqdiri uni jamiyatdagi zaif qatlamlar, ayniqsa ayollar va global janub vakillarining timsoliga aylantiradi. U irqiy jihatdan aniqlanmagan, na G'arbga, na Sharqqa to'la mansub emas – bu jihat Oriksni postkolonial va postfeministik zo'ravonliklarning badiiy markaziga qo'yadi.

Jimmi (Qorodum) ikkalasiga ham bog'langan obraz sifatida, bu ikki qahramon orqali ichki ziddiyatlar va axloqiy tanlovlar og'irligini boshdan kechiradi. U Oriksni chin dildan sevadi, Kreyk bilan esa bolalikdagi do'stlik uni bog'lab turadi. Natijada, bu ikki obraz o'rtasidagi qarama-qarshilik Jimmida hasad, og'riq va ichki parokandalikni uyg'otadi.

Oriks – hayotni davom ettirish, mehr, chidamlilik va global adolatsizliklar timsoli bo'lsa, Kreyk – o'zgartirish, buzish va qayta yaratish orzusidagi sovuqqon ongning ifodasidir. Ularning har biri zamonaviy dunyo muammolarining badiiy tus olgan qiyofasidir: biri – zaif, lekin mehrlil; ikkinchisi – kuchli, lekin shafqatsiz.

Trilogiyada ayol obrazlari alohida o'rin egallaydi. Tobi – jasorat, sabr-toqat va ruhiy yetakchilik timsoli. U zo'ravonlikdan omon qolgan ayol sifatida nafaqat o'zini, balki boshqalarni ham saqlab qoladi. Ren – zaif, ammo muvofiqlasha oladigan yosh avlod vakili, Amanda esa kuchli iroda va ijtimoiy faolligini namoyish etadi. Bu ayollar jamiyatda ayollar boshdan kechiradigan zulm va chidamning turli shakllarini ifodalaydi. Ayniqsa, Tobi ona bo'lish imkonidan mahrum bo'lsa-da, erkaklarga xos jasorat, sabr va yetakchilikni namoyon etadi. Etvud bu obrazlar orqali jamiyatda zo'ravonlikka uchragan ayollar ko'pincha sukut saqlab, bardosh bilan yashashga majbur bo'lishini ta'kidlaydi. Trilogiyaning yakunida Etvud odatiy distopik pessimizmni chetlab o'tib, Tobining sevgi hikoyasiga ijobiy ohang beradi va inson o'z baxtini individual kurash orqali topa

⁶⁴ Stein K. Problematic Paradise in *Oryx and Crake* // J.B.Bouson (Ed.), Margaret Atwood: *The Robber Bride, the Blind Assassin, Oryx and Crake*. – London: A & C Black, 2010. – P. 141-155.

olishini ko'rsatadi. Tobi nafaqat o'z azoblarini yengadi, balki boshqalarga ham kuch bag'ishlaydi. Biroq saraton xastaligi uni o'z hayotiga nuqta qo'yishga majbur qiladi. Tanqidchi J.Xir bu obrazni inson ruhiy chidamliligining murakkab, ammo ilhomlantiruvchi timsoli sifatida baholaydi: *"Tobi tufayli trilogiya faqat eng yaxshi asarlarga xos bo'lgan inson o'lchovini yig'a oldi"*⁶⁵.

Zeb – tizimga qarshi kurashuvchi, kuch va adolatni o'zida jamlagan obraz. U texnik bilimga ega, ammo shu bilimni hokimiyat uchun emas, hayotni saqlash uchun ishlatadi. U bilan bir qatorda Adam Birinchi – "Xudoning bog'bonlari" diniy-eko guruhining rahbari bo'lib, tabiat bilan uyg'un yashash, tinchlik va kamtarlik g'oyalarini ilgari suradi.

Yangi dunyoning boshqa qatlami esa Kreyk yaratgan kreyklardir – ular insoniyatning barcha ijtimoiy yomonliklaridan xoli, zo'ravonlik, din, iyerarxiya, pul kabi tushunchalardan butunlay ajratilgan mavjudotlar. Ular orqali Etvud insoniyat kelajagining muqobil, ammo idealistik modelini taklif qiladi.

Margaret Etvudning *"MaddAddam"* trilogiyasidagi inson-inson, inson-tabiat va inson-kreyker-tabiat munosabatlarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelindi: Kreyk obrazi inson o'z bilimni shaxsiy adovat quroliga aylantirishi mumkinligini ko'rsatadi; trilogiya davomida insonning ochko'zligi va tabiatga zulmkorona munosabati insoniyat halokatiga olib keluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Jimmi obrazi orqali inson qalbidagi illatlar o'sib borib, uni halokat sari yetaklashi ochib beriladi. Tobi timsoli ayolning kuchi va sabr-toqati zo'ravonlikka bardosh bera olishini, ammo uning zaifligi bu kuchga soya solishini ko'rsatadi. Ren esa insonning irodasizlik va o'ziga ishonchsizlik tufayli boshiga tushadigan qiyinchiliklar sababini yoritadi. Shuningdek, "Xudoning bog'bonlari" diniy guruhi misolida tabiat va tirik mavjudotlarga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otishda diniy e'tiqod hamda va'zlarning ahamiyati ta'kidlanadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijasida Margaret Etvud ijodida distopiya janri an'alarining shakllanishi va rivojlanishi tizimli ravishda o'rganildi, janrning badiiy xususiyatlari, estetik tabiati hamda g'oyaviy mazmuni aniqlab berildi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi asosiy holatlarda ifodasini topdi:

1. Distopiya janri an'alari mazmunan insoniyat kelajagidagi xavfli ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ekologik va texnologik muammolarni badiiy ifodalashga qaratilgan bo'lib, totalitar boshqaruv, inson huquqlarining buzilishi, gender tengsizligi, tabiatga nisbatan zo'ravon munosabat va ilmiy taraqqiyotning salbiy oqibatlarini tanqidiy tarzda yoritadi. Shaklan esa bu janrga kelajak yoki alternativ voqealarga asoslangan, qattiq nazorat ostidagi jamiyatlar tasviri, ramziy obrazlar, satira va ironiyaga boy ifoda uslubi, ochiq yakun va ko'p qatlamli syujet xosdir. Distopiya asarlari kitobxonni ogohlantirish va jamiyatdagi salbiy jarayonlar haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Ushbu janr XX-XXI asrlar davomida bosqichma-

⁶⁵ Heer J. Review of MaddAddam, by Margaret Atwood [Elektron manba] // The NationalPost. – 2013, August 30. – URL: <https://www.theguardian.com/books/2013/aug/28/maddaddam-margaret-atwood-review> (murojaat sanasi: 05.01.2025).

bosqich rivojlanib, apokaliptik, totalitar, ekologik va feministik distopiyalarga ajralgan hamda zamonaviy adabiyotda ogohlantiruvchi tahliliy vosita sifatida mustahkam o‘rin egallagan.

2. Zamonaviy adabiyotshunoslikda distopiya janrining nazariy-terminologik asoslari hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, bu yo‘nalishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, terminologik chalkashliklar (utopiya, antiutopiya, kakotopiya, eutopiya, yukroniya, distopiya), janr chegaralarining ilmiy fantastika bilan kesishishi, yozuvchilarning badiiy uslubiga qarab yuzaga keladigan tasniflar (ekologik, romantik, totalitar, apokaliptik distopiyalar), genderga oid yondashuvlar (feministik distopiya) va milliy xususiyatlarga asoslangan tasniflar distopiya janrining ilmiy tizimlashtirilishini murakkablashtirayotgan asosiy omillar qatoriga kirgan.

3. Feministik distopiya janri 1915-2023-yillar oralig‘ida shakllanib, ayollar tomonidan gender tengsizligi, zo‘ravonlik, reproduktiv huquqlar va ekologik muammolarni badiiy-estetik jihatdan ifodalaydi. Ushbu janrning rivojlanishi to‘rt bosqichga bo‘linib tadqiq etilgan: 1) dastlabki bosqichda (1915-1969) ayol jamiyatdagi o‘rnining badiiy talqini asosiy mavzu bo‘lgan bo‘lsa; 2) rivojlanish davrida (1970-1989) siyosiy tanqid kuchaygan; 3) zamonaviy bosqichda (1990-2009) ekologik va texnologik muammolar aks ettirilgan; 4) so‘nggi bosqichda (2010-2023) esa raqamli nazorat va tug‘ruq siyosati markaziy masalalar sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga, feministik distopiya janri ekofeminizm asosida kengayib, zamonaviy adabiyotda ayol va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi muhim estetik-ham ijtimoiy vositaga aylangan.

4. Tadqiqot davomida Margaret Etvud ijodida klassik distopiya adabiyoti an‘analari (masalan, Jorj Oruell va Oldos Haksli asarlarida shakllangan) qisman saqlanib qolganligi aniqlanib, bu an‘analar feministik va ekologik talqinlar bilan boyitilgan holda yangi badiiy shaklga ega bo‘lgan. Etvud klassik distopiyalarga xos bo‘lgan totalitarizm, shaxs erkinligi, nazorat va tazyiq kabi mavzularni saqlab qolgan holda, ularni gender, ekologik va postgumanistik kontekstlarda qayta talqin etilgan. Bu esa uning asarlarini zamonaviy distopiya janrining kengaytirilgan va yangilangan modeli sifatida qarashga imkon yaratdi.

5. Margaret Etvudning “Oqsoch hikoyasi” romanining ekofeministik va postgumanistik muammolarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, asarda onalik, oila va shaxsiy erkinlik masalalari chuqur tanqidiy yoritilgan. Ayollar ustidan olib boriladigan nazorat – ularning ijtimoiy rollari, kiyimlari, ranglar orqali ajratilishi, diniy diskurs va harakat erkinligining cheklanishi – feministik distopiya janrining asosiy g‘oyalari sifatida yoritilgan. Muallifning badiiy uslubi, intertekstual ishoralar va kuchli metaforalari orqali ayollar jamiyatda inson emas, balki faqat biologik resurs sifatida tasvirlanadi. Natijada, roman gender tengsizligining estetik va mafkuraviy ko‘rinishini ta’riflaydi hamda ayollarni ekspluatatsiya qiluvchi nazorat ijtimoiy mexanizmlarini fosh etadi.

6. Margaret Etvudning “Oqsoch hikoyasi” romanida ayollar obrazlari besh tipologik guruhga ajratilishi orqali distopik jamiyatda jinsga asoslangan qat’iy iyerarxiya va nazorat tizimi tanqid nishoniga olingan. Har bir ayol sinfi – reproduktiv, rasmiy, isyonkor, mafkuraviy va xizmatkor turdagi ayollar – jamiyat

tomonidan belgilangan funksional rolga ega bo'lib, ularning tashqi ko'rinishi, ijtimoiy vazifasi va simvolik belgilar orqali insoniylikdan mahrum etilganligi ko'rsatiladi. Bu tipologiya ayollarning nafaqat erkaklarga, balki bir-birlariga nisbatan ham bo'linishini, nazorat qilinishini va ekspluatatsiya qilinishini ifodalaydi. Etvud bu orqali patriarxal tuzumning ayolga nisbatan zulmini fosh etadi va gender tengsizligining keskin tanqidini ilgari suradi.

7. Margaret Etvudning "MaddAddam" trilogiyasidagi ekofeminizm, irsiy injeneriya va obrazlar tizimi orqali ifodalangan muammolar shuni ko'rsatadiki, Margaret Etvud asarlarida ayol va tabiatga nisbatan zulm bir butun ekspluatatsion tizim sifatida tasvirlangan. Ayolning jamiyatdagi zaif mavqei va tabiatning talon-taroj qilinishi o'zaro bog'liq hodisalar sifatida ochib berilgan. Ayol obrazlari orqali jinsiy va ruhiy zo'ravonliklar ko'rsatilgan bo'lsa, Kreyk timsolida texnokratik fikrlash va genetik manipulyatsiyaning xavfli oqibatlari badiiy ifoda topgan. Jimmi esa bu obrazlar o'rtasida axloqiy ziddiyatlar va ruhiy inqiroz holatlarini mujassamlashtiradi. Trilogiyadagi ayol obrazlari jasorat, sabr-toqat, muvofiqlashuv va ichki o'sish orqali distopik nazorat tizimlariga qarshi turuvchi, mustaqil shaxslar sifatida yuksaltirilgan.

8. Trilogiyadagi badiiy detallar romanlarning estetik mohiyatini yanada chuqurlashtiradi. Intertekstual ishoralar (Injil, Andersen ertaklari, mifologik obrazlar), metaforalar (masalan, ayollarning "ikki oyoqli bachadonlar" yoki "urug'" sifatida talqin qilinishi), shuningdek, ramziy ranglar va hayvoniy obrazlar (pigoon, "Secretburgers", "Rarity" restorani) zamonaviy jamiyatdagi ekologik, jinsiy va axloqiy inqirozlarni badiiy vositalar orqali fosh etadi. Ushbu poetik ifoda vositalari orqali Etvudning tanqidiy qarashlari yanada kuchli va ta'sirli ifodalanadi.

9. Margaret Etvud ijodining tahlili nafaqat feministik va ekofeministik distopiya doirasida, balki kengroq kontekstda ham dolzarb bo'lib bormoqda. Uning adabiy merosi hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Etvudning bolalar adabiyotidagi ekologik va axloqiy mavzular; asarlaridagi Kanada madaniy o'zligi masalasining badiiy talqini; adibaning esse va noadabiy asarlarida jamiyatshunoslik hamda siyosiy g'oyalarning aks etishi va boshqalar.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

КАДИРОВА ДУРДОНА ДИЛШАДОВНА

**ТРАДИЦИИ ЖАНРА ДИСТОПИИ В ТВОРЧЕСТВЕ
МАРГАРЕТ ЭТВУД**

**10.00.04 – Язык и литература народов Европы,
Америки и Австралии**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.3.PhD/Fil3787.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Махмудова Наргиза Алимовна

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Сиддикова Ирода Абдузхуровна

доктор филологических наук, профессор

Насриддинов Дилшод Аъзамкулович

доктора философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

**Национальный педагогический университет
Узбекистана имени Низами**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № _____). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.

(Реестр протокола рассылки № _____ от «___» _____ 2025 года).

И.М. Тухтасинов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

Х.Б. Самигова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.А. Якубов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении дистопия как жанровая форма сформировалась в XIX веке, прошла длительный путь эволюции и к настоящему времени утвердилась как одна из ведущих структурных моделей современной художественной литературы. Роман дистопия привлекает устойчивый интерес как исследовательского сообщества, так и широкой читательской аудитории. Это обусловлено тем, что дистопические произведения отражают широкий спектр актуальных глобальных проблем современности – от форм тоталитарного управления и гендерного неравенства до экологических катастроф, неконтролируемого развития науки и технологий и угроз будущему человеческой цивилизации в целом.

В последние десятилетия жанр дистопии особенно активно развивается в англоязычной литературе, охватывая новые художественные направления, стилистические модели и идеологические концепции. Особое место в формировании современных традиций дистопии занимает творчество канадской писательницы Маргарет Этвуд. В её произведениях феномены политических репрессий, гендерной дискриминации, экологической угрозы и нравственной ответственности человека за судьбу планеты получают глубокую художественную интерпретацию. Центральной особенностью её авторской модели дистопии становится органичное соединение феминистской, экофеминистской и постгуманистической проблематики, что позволяет рассматривать творчество Маргарет Этвуд как важную концептуальную основу для междисциплинарных литературоведческих исследований современности.

Для узбекского литературоведения изучение мировых традиций дистопического жанра приобретает особую значимость в контексте проводимых в Республике Узбекистан реформ, направленных на развитие науки, интеграцию образования, науки и производства, а также активное освоение передового зарубежного опыта. Анализ дистопических моделей, раскрывающих проблемы экологических кризисов, гендерного неравенства и социальной несправедливости, способствует формированию у отечественного читателя более глубокого осмысления актуальных вызовов современности. В этом контексте исследование традиций жанра дистопии в творчестве Маргарет Этвуд приобретает не только теоретическое, но и практическое значение как для развития мировой, так и для отечественной гуманитарной науки.

Результаты данной диссертации служат в определенной степени для реализации задач, намеченных в Законе Республики Узбекистан «О науке и научной деятельности» № ЗРУ-576 от 29.10.2019 г.¹, Указах Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» № УП-5847 от 08.10.2019 г.², «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» № УП-6108 от 06.11.2020 г.³.

¹ <https://lex.uz/docs/-4571490> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

² <https://lex.uz/ru/docs/-4545884> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5085999> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

ПП-5117 от 19.05.21 Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан»⁴ «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» № УП-60 от 28.01.2022 г.⁵, Постановлениях Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в сфере науки и государственного управления в области инновационного развития» № ПП-5047 от 01.04.2021⁶, «О мерах по ускорению комплексного развития системы образования посредством повышения качества научно-методической и исследовательской работы» № ПП-128 от 20.04.2023⁷, а также других нормативно-правовых документах, касающихся данной темы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики: «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В мировой литературе жанр дистопии, а также творчество канадской писательницы Маргарет Этвуд уже на протяжении многих лет остаются в центре внимания западных исследователей. В частности, изучались происхождение термина «дистопия» и этапы его становления как самостоятельного жанрового направления в литературоведении в трудах Т. Мойлан, Р. Бакколини, Л. Сарджент, К. Букер, М. Хиллегас, А. Хауэлс⁸, феминистские дистопии и их теоретическое значение – Э. ди Минико, М. Дунья, Дж. Кортиэль, С. Фалькина, Б. Эрнрайх, Э. Клингсмитз⁹; творчество Маргарет Этвуд – Н. Кук, Х. Макферсон, А. Хауэллс, С. Кузницкий, С. Даннинг, Ф. Толан, К. Стайн, В. Ле Гуин, М. Гримбек¹⁰, экофеминизм и климатическую фантастику (cli-fi) – В. Шарф и Г. Гард.¹¹

⁴ <https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁶ <https://lex.uz/docs/-5352230> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁷ <https://lex.uz/docs/-6438903> [Murojaat sanasi 26.01.2025]

⁸ Moylan T., Baccolini R. (Eds.). Dark horizons: Science fiction and the dystopian imagination. – New York: Routledge, 2003. – 264 p.; Sargent L.T. The three faces of utopianism revisited // Utopian Studies. – 1994. – № 5(1). – pp. 1–37.; Booker M.K. The dystopian impulse in modern literature: Fiction as social criticism. – Connecticut: Praeger, 1994. – 208 p.; Hillegas M.R. Dystopian science fiction: New index to the human situation // New Mexico Quarterly. – 1961. – № 31(3). – pp. 238–249; Howells C.A. Margaret Atwood's dystopian visions: The Handmaid's Tale and Oryx and Crake // C.A. Howells (Ed.), The Cambridge Companion to Margaret Atwood (pp. 161–175). – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.;

⁹ Minico E.D. Spatial and psychophysical domination of women in dystopia: Swastika Night, Woman on the Edge of Time and The Handmaid's Tale // Humanities. – 2019. – № 8(1). – pp. 1–15; Mohr D.M. Worlds apart? Dualism and transgression in contemporary female dystopias. – North Carolina: McFarland & Company, 2005. – 320 p.; Cortiel J. Feminist utopia/dystopia: Joanna Russ, The Female Man (1975), Marge Piercy, Woman on the Edge of Time (1976) // E.Voigts, A.Boller (Eds.), Dystopia, science fiction, post-apocalypse: Classics, new tendencies, model interpretations (pp. 155–169). – Germany: Wissenschaftlicher Verlag Trier, 2015.; Martínez-Falquina S. Feminist dystopia and reality in Louise Erdrich's Future Home of the Living God and Leni Zumas's Red Clocks // The European Legacy. – 2021. – № 26(3-4). – pp. 270–286.; Ehrenreich B. Feminist dystopia // H.Bloom (Ed.), Bloom's guides: Margaret Atwood's The Handmaid's Tale (pp. 78–80). – Broomall: Chelsea House Publishers, 2004.; Klingensmith E. Feminist themes in dystopias: MA ... thes. – Pennsylvania, 2016. – 80 p.

¹⁰ Cooke N. Margaret Atwood: A biography. – Ontario: ECW Press, 1998. – 378 p.; Macpherson H.S. The Cambridge introduction to Margaret Atwood. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 158 p.; Howells C.A. Margaret

